

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METO'DLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Eryigitova Maxfirat Mahmudjon qizi

*Jizzax viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
“Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi “Boshlang'ich ta'lism fani metodisti*

Annotatsiya: *Interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati nomli metodik tavsiyada boshlang'ich sinflarda dars o'tish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy texnalogik vositalarning ahamiyati, ularning dars jarayoniga tadbiq qilish samaradorligi haqida fikrlar keltirilgan bo'lib undan barcha boshlag'ich sinf Darslarni sifatli tashkil etilishning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qancha metod va vositalar tavsuya etilgan bo'lib u boshlang'ich ta'lism uchun.*

Annotation: *The methodical recommendation entitled "The role and importance of interactive methods" contains ideas about the importance of modern technological tools and the effectiveness of their application in the teaching process in order to eliminate existing problems in the process of teaching in primary grades. In order to expand the possibilities of quality organization, several methods and tools are recommended for primary education.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, o'qish, metod, ta'lism, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar, interfaol vositalar, savodxonlik darajalari, didaktik o'yinlar.*

Key words: *primary class, reading, method, education, teaching process, pedagogical technologies, interactive tools, levels of literacy, didactic game.*

Kirish:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan Ta'lim to'g'risidagi qonun 9-modda- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bo'limida berilgan boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan chora tadbirlarga binoan boshlang'ich ta'lim -ta'limgning poydevori ekanligini ko'rishimiz mumkin .

Inson hayotining aynan yoshlik davrida o'rganilgan har qanday bilim, ko'nikmalar, u ulg'aygach, erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo'lib xizmat qiladi. Yoshlik – kishi umrining bahor davri, unda hayotning bo'lg'usi yillari uchun urug' ekiladi. Ilm esa insonning hayot yo'lida yo'lchi yulduz singari


mayoq vazifasini o'taydi. Kelajak avlodga ta'lim berishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga juda mas'uliyat yuklanadi. Bolalarni erkin fikrllovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi.

Asosiy qism :


Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarlarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Shunday ekan, ta'lim tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rini foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va

shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Dars mashg'ulotlarida o'yin topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmiy yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim.

Qadrli o'quvchilar aytingchi rasmida nimalar tasvirlangan?



Tasvirli test. Savollarni o'qib to'g'ri javobni belgilang



Psixologlarning o'tkazgan tahlillariga ko'ra, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar 2 hafta o'tgach, mustaqil o'qish orqali 10 foizi, tinglash orqali 20 foizi, ko'rish orqali 30 foizi, o'zi namoyish etsa yoki so'zlab bersa 50 foizi, bahs-munozara, suhbat orqali 80 foizi, o'zi amaliy bajarganda esa 90 foizi eslab qolinar ekan. Shularni hisobga olsak, o'quvchilarga dars berishda ko'proq bahs-munozara, suhbat va amaliy ishlarni dars davomida o'z kuzatuvimiz va nazoratimiz ostida olib borishimiz kerak ekan. Bir xil uslubda dars o'tish bolalarda darsga qiziqmaslik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Bu holatlarni oldini olish uchun turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bolalar bir xillikdan juda tez zerikadi 45 daqiqalik dars mobaynida 20 daqiqadan keyin miyaga ma'lumot qabul qilish sekinlashib qoladi, shunday holatlarda 5 daqiqalik metodlardan foydalanish kerak. Bunday metodlarimiz juda ham qo'l keladi.

Misol uchun "B...B...B" metodi, "4 Format" metodi "Bog'bon quyoncha" metodi, "Yomg'irli bulut" metodi, "Soat millari usuli" metodi, "Kutuvlar daraxti" metodi, "Aqliy hujum" kabi ko'plab metodlar mavjud.

"B...B...B..." Bu metoddan dasrsning yakunlanish bosqichida foydalaniladi. Metod o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini hamda dars haqidagi xulosalarni bilib olishga erishiladi, qolaversa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Metodda umumiyl fikrlar jamlanib, darsga umumiyl xulosa beriladi. Erishiladigan natija : O'quvchilarni dars haqidagi fikrlarini bilib olishda qo'l keladi

"4 Format" metodi Bu metodda o'tilgan mavzuni mustahkamlash hamda yangi mavzuni mustahkamlash jarayonlarioda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarga 4 formatli listlar tarqatiladi va o'quvchilar mavzu yuzasidan fikrlarini guruhlarga bo'lingan holda yozadilar. Fikrlar bir-birini takrorlamaydi, guruh sardori tomonidan og'zaki o'qib beriladi va kamchiliklar

bo'lsa bartaraf qilinadi. Bu metod orqali aytilgan ma'lumotlar barcha o'quvchilar xotirasidan tez va oson joy oladi.

“Bog'bon quyoncha” metodi ushbu metodni qo'llash orqali dasr mavzularini takrorlab olishga erishiladi. Bu metodni qo'llash juda ham qulay va oson. Bunda o'qituvchidan qo'l mahorati talab etiladi.

“Yomg'irli bulut”- ushbu metod ham dars mavzusini mustahkamlashda qo'l keladi. Qo'llanishi: oddiy bulut ichiga mavzu nomi va tomchilariga mavzu bo'yicha savollar yoziladi. Bunday ko'rinishdagi savol-javoblar o'quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini orttiradi.

“Soat millari metodi” - bunda o'tilishi kerak bo'lgan dars mavzusi va ma'lumotlarini alohidadan qilib varoqlarga chiqariladi, o'quvchilar qo'liga tarqatiladi, undan so'ng bitta ichki aylana va shu aylana atrofidan yana bir aylan tashkil etiladi. So'ng aylanadagi o'quvchilar bir-birariga qarab turib olishadi. Undagi malumotlarni bir-birlariga tushuntirishadi va o'zaro muloqot qilishadi. Shu tariqa soatning minut mili aylanganidek bir-birlari bilan almashgan holda ma'lumotlarni qayta-qayta tushuntirishadi va undan so'ng o'qituvchi darsni mavzusini tushuntirib beradi. Bunda o'quvchilarni eslab qolish jarayoni yaxshiroq bo'ladi. Bu orqali o'quvchilarda ham qiziqarli dars tashkillashga erishiladi.

“Kutuvtolar daraxti” bu metodimiz ham o'quvchilarni fikirlashga va dars qanday o'tilganligini taxlil qilishga undaydi. Bunda birinchi daraxtimizga dars qanday o'tganligi va keyingi darsdan nimalar, yani, qanday yangicha enerjayzer yoki yangicha metodlar kutayotga

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar, interfaol uslublar, ta'limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. O'quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar, biz maqsadga erishgan bo'lamiz. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu o'z natijasini beradi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi. Yuqoridaqgi metodlardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishga erishiladi. Dars o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vositasi va o'qituvchi faoliyatining eng muhim qismi . Shu sababli darsni zamonaviy talablarga javob beradigan, samarali qilib tashkil etish biz pedagoglarning asosiy burchimizdir. Bu burchni halol va vijdonan bajarish uchun bor ilmimizni, bor mahoratimizni,

bor kuch-g'ayratimizni ayamaylik. Toki, farzandlarimiz Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan barkamol shaxslar bo'lib yetishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Ta'lif to'g'risidagi qonun - 2020-yil 7-avgust.
2. Boshlang'ich ta'lif jurnallari
- 3.Internat manbalari.
Gogle, Chrom , Ta'lif telegram tarmoqlari.